

2025-yil 12-may kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti Ekologiya va yashil resurslar kafedrasini tomonidan **“Oilalarda yashil iste’mol madaniyati va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish”** mavzusida seminar-trening tashkil etildi.



Tadbirni kafedra professori Xushvaktova Xusnobod Saliyevna olib bordi. Ushbu seminar-treningda Ekopartiya vakillari ham ishtirok etdilar.



Seminar-trening davomida quyidagi masalalar muhokama qilindi:

- yashil iste'mol tamoyillari;
- ekologik toza mahsulotlardan foydalanish;
- energiya va resurslarni tejashning samarali usullari;
- sog'lom ovqatlanish va jismoniy faollikning ahamiyati;
- ekologik ongni shakllantirish va barqaror rivojlanish tamoyillari.



Tadbir interaktiv shaklda tashkil etilib, ishtirokchilar o'z fikrlari bilan faol qatnashdilar, guruh ishlari va eko-amaliyotlarda ishtirok etdilar.

Tadbir yakunida eng faol ishtirokchilar sertifikatlar va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

